Sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirish va uning iste'moli so'nggi yillarda dunyo bo'yicha o'sib bormoqda. Bunga sabab sohada yaratilayotgan mahsulotlar inson organizmini turli vitaminlar, minerallar, fitontsidlar bilan ta'minlaydigan muhim manba hisoblanadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) prognozlariga qaraganda, 2032-yilgacha dunyo aholisi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli 1,3 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Bunda sog'lom ovqatlanish ratsioni doirasida sabzavot mahsulotlarining o'rni ham ortib boradi.

Dunyo oziq-ovqat mahsulotlari bozorida raqobat kuchaygan hozirgi davrda respublikaga import qilinayotgan sabzavot mahsulotlari miqdorini kamaytirish va aholi ehtiyojini ichki imkoniyatlar hisobiga ta'minlash strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois so'nggi yillarda paxta ekin maydonlari qisqarishi hisobiga sabzavot ekin maydonlarini kengaytirish, serhosil, eksportbop sabzavot navlarini joylashtirish bo'yicha tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biroq sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish yil sayin oshib borayotgan bo'lsa-da, hozirgi kunda respublikaga sabzavot mahsulotlarining ayrim turlari import qilinmoqda. Buning asosiy sababi respublikaning o'zida yetishtirilayotgan sabzavotlarning 30 foizga yaqini hosilni yig'ish, tashish va saqlash jarayonida nobud bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida mahsulot tannarxining oshishiga olib kelmoqda.

Qayd etish joizki, sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirishga doir tashkiliy-tarkibiy, institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq muammolar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha ochib berilmagan, iqtisodiyotni raqamlashtirish, yashil iqtisodiyotga o'tish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Tarmoqdagi mazkur va boshqa shu kabi qator muammolarning zamon talablariga javob beradigan yechimlarini topish, ularni sabzavot mahsulotlari samaradorligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarida izchil qo'llashning obyektiv zaruriyati mazkur tadqiqot mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda sabzavot mahsulotlari yetishtirish tizimini oldindan prognoz qilish, kelgusida hosildorlikni oshirish va ishlab chiqarish hajmining o'sib borish holatini prognozlash kabi masalalar hozirgi davrning o'ta dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanishi ko'p omillarga bog'liqligidan kelib chiqib, iqtisodiy tahlilning samarali usullari qatorida matematik modellashtirish usullarini qo'llash sohaning rivojlanish dinamikasini haqqoniy baholash imkonini yaratadi.

Hozirda fermerlar va klasterlarda yerlardan uzoq muddatli foydalanishga ishonch yo'q. Tahlillarga ko'ra, 7000 ga yaqin fermerlar yerlarga o'rtacha bir yarim yil egalik qilmoqda [9, 137 b.]. Bu ularda ushbu yerlarga bo'lgan mulkka egalik hissi yo'qligini anglatadi..., aslida esa ushbu yerlar ularga uzoq muddatga ijaraga berilishi lozim. Shundagina dehqon ushbu hududlarda tuproq unumdorligini oshirish, intensiv sabzavotchilikni rivojlantirish orqali daromad ko'rish uchun investitsiyalar sarf qiladi.

Respublikamiz, jumladan Toshkent viloyati sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirishda xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalar ko'lamini kengaytirish salohiyatiga ega. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlari yaratish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, jahon savdo maydonlarida jahon andozalari talablari asosida raqobatbardosh yangi uzilgan va qayta ishlangan sabzavot mahsulotlari hajmini oshirish imkonini beradi.

Tahlillar ko'rsatishicha, bugungi kunda mamlakatimizda yetishtirilgan sabzavot mahsulotlari Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari bozorlari uchun ko'proq tanish va iste'molchilar ishonchini qozongan. Ayni paytda uzoq xorijiy bozorlarga kirish qator masalalarni hal etishni talab qiladi. Jumladan, mahsulotlarimiz Yevrostandart talablari bo'yicha tarkibida kimyoviy moddalar miqdori jihatidan javob bermasligi, shuningdek subyektiv to'siqlar tufayli ushbu bozorlarning ko'p qismini egallagan Turkiya, Xitoy va boshqa shu kabi yirik bozor subyektlari bilan raqobatga kirishadi.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalar mahalliy eksportchilardan sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorga olib chiqish uchun yuqori kafolatlar berishga tayyor bo'lgan xorijiy kompaniyalar bilan maqbul sheriklik modelini tanlash masalasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz uchun yirik iste'molchi hisoblangan Rossiya bozorining an'anaviy sabzavotlarga qo'shimcha ravishda Rossiya Federatsiyasida yetishtirish imkoni bo'lmagan yoki yetishtirish qimmat bo'lgan sabzavotlarga talabi ortmoqda. Bunda Rossiya sabzavot mahsulotlari bozorining 17 foizdan ortig'ini Turkiya egallagan bo'lsa, qolgan qismi Misr, Xitoy, O'zbekiston, Janubiy Afrika, Belarus, Moldova va Isroil davlatlari ishlab chiqaruvchilariga tegishli bo'lmoqda [10].

So'nggi yillarda shakllangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti geografiyasi tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekistonning meva-sabzavot mahsulotlari eksportida birinchi to'rttalik davlatlar qatorida 37,6 foizlik salmoq bilan Rossiya birinchi o'rinni egallagan. O'zbekiston eksportida keyingi o'rinlarni Pokiston (16,5 %),

Xitoy (12,7 %), Qozog'iston (10,4 %) davlatlari band qilgan. Eksportning umumiy hajmi 1,6 mln tonnani (1,0 mlrd dollardan ortiq) tashkil qilib, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 1,4 foizga ko'proq bo'lgan [11]. Bu esa kelajakda yaqin xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishni, ushbu davlatlar bozor talablariga moslashishni taqozo qiladi.

Yuqoridagi muammolarni hal etilishi va yechilishiga tegishli tadbirlarni amalga oshirish respublikamizda intensiv sabzavotchilikni rivojlantirish orqali erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida tarmoqning eksport imkoniyatini yuksaltirish, mavjud yer va suv, mehnat resurslaridan, ilmiy-intellektual salohiyatdan, uzoq yillar davomida shakllangan dehqonchilik madaniyatidan hamda respublikamiz hududlarining sabzavot mahsulotlari yetishtirish uchun qulay bo'lgan tabiiy-iqlim sharoitlaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni taqozo etadi.

Ilmiy adabiyotlarda mahsulotlarni yetishtirish hajmi, hosildorligi va uning bozor kon'yunkturasini prognozlashning turli variantlari va usullari qo'llanilishini kuzatish mumkin. Xususan, R.F. Djumanovaning fikricha, amaliyotda prognozlashning 130 xil usullari mavjud bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda ularni shartli ravishda 3 xil muhim guruhga bo'lish mumkin. Bular ekstrapolyatsiya, prognozlashning ekspert baholash usuli hamda modellashtirish usullaridir [12, 15 b.].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar rasmiy manbalar, jumladan davlat statistika hisobotlari va tarmoq bo'yicha analitik ma'lumotlar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil qilindi hamda omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va prognoz ko'rsatkichlarini baholash uchun ko'p omilli regressiya tahlili va korrelyatsiya usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda qishloq xo'jaligi, jumladan sabzavot mahsulotlarini yetishtirish hajmi, uning hosildorligi va bozor kon'yunkturasini prognozlashda ko'p omilli regressiya tahlilidan foydalanishimiz mumkin. Uning modeli yordamida istiqbolga mo'ljallangan prognoz qiymatlarini aniqlash uchun quyidagi modelni tuzib olamiz.

$$y = \alpha_0 + \sum_{i=1}^{n} a_i x_i \qquad (1)$$

$$y = \alpha_0 + \sum_{i=1}^{n} \alpha_i x_i + \sum_{i,j=1}^{n} \alpha_{2n+i} x_i x_j + \sum_{i,j,k=1}^{n} \alpha_{2n+i} x_i x_j x_k, \quad i \neq j \neq k \qquad (2)$$

bu yerda $y$ - natijaviy ko'rsatkich; $x_1, x_2, ..., x_n$ - natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillar, $\alpha_0, \alpha_1, ..., \alpha_n$- noma'lum parametrlar.

Ushbu chiziqli modelda y=f($x_1$, $x_2$, ...., $x_n$,$\alpha_0, \alpha_1, ..., \alpha_n$ bog'lanishni hisoblab chiqish uchun $a_0, a_1, ..., a_n$ noma'lum parametrlarini topish lozim. Ushbu amallarni bajarishda esa eng kichik kvadratlar usuli sodda va ishonchli yechim bo'ladi oladi. Mazkur usuldan foydalanishda quyidagi normal tenglamalar tizimini tuzish va bu tenglamalar sistemasini yechish orqali noma'lum parametrlarni (omillarni) aniqlash mumkin[1]:

$$\begin{cases} na_0 + a_1 \sum x_1 + a_2 \sum x_2 + ... + a_n \sum x_n = \sum y \\ a_0 \sum x_1 + a_1 \sum x_1^2 + a_2 \sum x_1 x_2 + ... + a_n \sum x_n x_1 = \sum y x_1 \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ a_0 \sum x_n + a_1 \sum x_1 x_n + a_2 \sum x_2 x_n + ... + a_n \sum x_n^2 = \sum y x_n \end{cases} \qquad (3)$$

Noma'lum parametrlar sonini hisoblashda ularning soni ikki va undan ortiq bo'lgan hollarda ushbu amallar uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturdan foydalanish o'zining samarali natijasini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, sabzavot ekinlari hosildorligini prognoz qilishda tarmoqning bir qator o'ziga xos alohida xususiyatlarini hamda ular bilan bog'liq bir qancha omillarning o'zgarish dinamikasini e'tiborga olinishi talab qilinadi. Bunda omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda ilmiy adabiyotlarda keng foydalaniladigan ko'p omilli regressiya tahlilidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, u bog'liqliklarning optimal yechimini taqdim eta olishiga amin bo'ldik.

1 У.Х.Беглаев. Балиқчилик хўжаликларини барқарор ривожлантиришни иқтисодий дастаклар орқали қўллаб-қувватлаш механизмини такомиллаштириш. "Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari" respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 26-mart. https://doi.org/10.5281/zenodo.10871322

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadqiqot jarayonida sabzavot yetishtirishda hosildorlik darajasiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarning o'zaro bog'liq ekanligi kuzatildi. Masalan, sabzavot yalpi mahsulot qiymatiga natijaviy omil deb qaralib, uning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida sabzavot ekinlari maydoni, 1 ga ekin maydoniga sarflanadigan mineral o'g'it narxi, 1 ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan o'rtacha hosildorlik darajasi kabi omillarni tanlab olishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval. Regression tahlil usulidan foydalangan holda sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati va uning o'zgarishini aniqlashda foydalanilayotgan omillar qiymati (misolida)[2] (mlrd so'm)

| Yillar | Y | $X_1$ | $X_2$ | $X_3$ |
|---|---|---|---|---|
| 2017 | 2844,1 | 33,5 | 27575 | 286.1 |
| 2018 | 4034,8 | 33,6 | 25485 | 224.4 |
| 2019 | 3967,5 | 38,36 | 26206 | 274.3 |
| 2020 | 3913,5 | 38,1 | 24802 | 250 |
| 2021 | 5141,7 | 38,8 | 23899 | 259.8 |
| 2022 | 6079,7 | 46,0 | 24489 | 235 |
| 2023 | 7462,7 | 58,1 | 26174 | 249.9 |

Y - yalpi mahsulot qiymati;

$X_1$- sarflanadigan mineral o'g'itlar qiymati, so'm;

$X_2$- sabzavot ekin maydoni ga;

$X_3$- o'rtacha hosildorlik ts/ga.

Yuqorida berilgan jadvaldagi omillar qiymatlari asosida sabzavot mahsulotlari uchun olingan natijaviy omillar va ular o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etuvchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarining korrelyatsiya matritsasi "MATLAB" tizimida dasturlash tilidan foydalanib, omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblaymiz.

Bunda yalpi mahsulot qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar, ya'ni mineral o'g'itlar narxlari, ekin maydoni, o'rtacha hosildorlik kabi muhim omillar hisobga olindi (2-jadval).

2-jadval. Sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymatiga ta'sir qiluvchi omillarning bog'liqlik holatini ko'rsatuvchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi[3]

| | Y | X1 | X2 | X3 |
|---|---|---|---|---|
| Y | 1.0000 | | | |
| X1 | 0.9406 | 1.0000 | | |
| X2 | -0.3511 | -0.0838 | 1.0000 | |
| X3 | -0.4338 | -0.2206 | 0,5706 | 1.0000 |

Ko'rilayotgan jarayonda prognozni amalga oshirish uchun avvalo quyidagi ko'p omilli regressiya modelini ko'rib chiqamiz.

$$y_i = \alpha_0 + \alpha_1 x_{1i} + \alpha_2 x_{2i} + \alpha_3 x_{3i} \qquad (4)$$

Tanlab olingan omillar o'rtasidagi korrelyatsion matritsa tahlili orqali, shu bilan birgalikda korrelyatsiya koeffitsiyentlari o'zgarishini ko'rib chiqish mumkin. Ta'kidlash joizki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari sabzavot yalpi qiymati o'zgarishiga (Y) ta'sir etuvchi tanlangan omillar (X1, X2, X3) o'rtasida qanday bog'lanish mavjud ekanligini aniqlashda foydalaniladi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati (Y) va mineral o'g'itlar qiymati (X1) o'rtasida aloqa zichligi (0,9406), yalpi mahsulot qiymati (Y) va sabzavotning o'rtacha hosildorligi (X3) o'rtasida (-0,4338) o'rtacha aloqa mavjudligi, yalpi mahsulot qiymati (Y) va sabzavot ekilgan maydon (X2) o'rtasidagi aloqaning (-0,3511) sust ekanligidan dalolat bermoqda.

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatuvchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari (ya'ni X1 va X2, X1 va X3, X2 va X3) 3.2-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, mineral o'g'itlar qiymati (X1) va o'rtacha hosildorlik (X3) o'rtasida (-0,0838) bog'liqlik juda past, mineral o'g'itlar sarfi (X1) va sabzavot maydoni (X2) o'rtasida bog'liqlik juda sust (-0,2206) ko'rsatkichlar bilan ifodalangan. Ayni paytda sabzavotning o'rtacha hosildorligi (X3) va ekin maydoni (X2) o'rtasidagi bog'liqlikning zichligi yaxshi (0,5706). Umuman olganda, tanlab olingan omillar bo'yicha sabzavotchilikda bevosita aloqalarning sust ekanligi kuzatildi.

2 Манба: Муаллифнинг илмий-тадқиқотлари асосида ҳисобланган.
3 Муаллифнинг илмий-тадқиқотлари асосида ҳисобланган.

Sabzavot xo'jaliklarida sabzavot ekinlarini yetishtirish bo'yicha yalpi mahsulotning haqiqiy va (5) model asosida hisoblangan qiymatlari grafigi quyidagi 1-rasmda o'z aksini topgan (1-rasm).




1-rasm. Toshkent viloyati bo'yicha sabzavotchilik sohasi yalpi mahsulotining haqiqiy va (5) model asosida hisoblangan qiymatlari grafigi[4]

Ko'p omilli chiziqli regression ekonometrik modelning umumiy sifat ko'rsatkichini aniqlashda determinatsiya koeffitsiyentini ($R^2$) hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \bar{y})^2} \quad (6)$$

$y_i$-natijaviy ko'rsatkichning kutilayotgan darajasi;

$\bar{y}$-natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha arifmetik qiymati;

$\hat{y}$- natijaviy ko'rsatkichning aniqlangan, prognozlashtirilgan, tekislangan miqdorlari; n – kuzatuvlar soni.

Umuman olganda, tuzilgan ekonometrik model asosida hisoblab chiqilgan natijalar ko'rsatishicha, sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati darajasiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili bo'yicha F-Fisher mezonining hisoblangan qiymati $F_{his}$ = 30.415 ga teng bo'lishi, shuningdek, erkinlik darajalari sur'at bo'yicha sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati $\gamma_1$ = 3 hamda maxraj bo'yicha $\gamma_2$ = 7-3-1 = 3 ga teng bo'lganda, Fisher mezonining qiymati, ya'ni mohiyatlilik darajasi sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati darajasida p = 0,98 uchun $F_{jad.}$ = 6,59. Demak, qo'llanilgan ko'p omilli model sabzavotchilikda har bir ekin turi, sabzavot ekinlari yalpi mahsulot qiymatini bashorat qilish uchun mos hisoblanib, yuqorida berilgan har ikkala holatda ham kelgusi davr uchun prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi[5] (3-jadval).

3-jadval. Ko'p omilli ekonometrik modelning sifati va ahamiyatini tekshirish mezonlari[6]

| M/t | n | $F_p$ | $F_t$ | $R_m$ | $\varepsilon_c$ | υ | $r_a$ | $K_N$ | $F_p > F_t$[7] |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| chiziqli | 7 | 30.145 | 6.59 | 0.982 | 4.143 | 0.027 | 0.496 | 0.416 | bajarildi |

Ishlab chiqilgan trend funksiyalaridagi noma'lum sonlar o'rniga yuqorida keltirilgan model va formulalar yordamida olingan real raqamlarni qo'yish asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga muvofiq sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati darajasining 2017–2023-yillardagi ko'rsatkichlari asosida 2024–2030-yillargacha bo'lgan davrda sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymatining prognozi ishlab chiqildi.

Sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati dinamikasini matematik modellashtirish asosida tahlil qilishda sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymatiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni qamrab olinishi muhimdir. Bu esa

4 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.
5 У.Х.Беглаев. Балиқчилик хўжаликларини барқарор ривожлантиришни иқтисодий дастаклар орқали қўллаб-кувватлаш механизмини такомиллаштириш. "Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari" respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 26-mart. https://doi.org/10.5281/zenodo.10871322
6 Муаллифнинг илмий-тадқиқотлари асосида ҳисобланган.
7 Шарт бажарилиши

o‘z navbatida kelgusi yillar hosildorligini bashorat qilish va sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymatining o‘sib borish dinamikasini haqqoniy baholash, umuman olganda istiqbolda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlanib borish jarayonlarini iqtisodiy tahlil qilish amaliyotini yengillashtirish imkonini yaratadi.

Tadqiqot jarayonida sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymatini prognoz qilishning regressiya tahlil modeli hamda ko‘p omilli regressiya tenglamasidagi noma’lum sonlar o‘rniga yuqorida foydalanilgan model va formulalar yordamida olingan real raqamlarni qo‘yish orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga muvofiq sabzavotchilik yalpi mahsuloti qiymatining 2017–2023-yillardagi dinamikasi asosida 2024–2030-yillargacha bo‘lgan prognozi ishlab chiqildi (4-jadval)

4-jadval. Sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati va uni o‘zgarishini 2024-2030-yilgacha bo‘lgan davrdagi prognoz ko‘rsatkichlari

| № | Yillar | Yalpi mahsulot qiymati (mlrd so‘m) | mineral o‘g‘itlar qiymati (mlrd so‘m) | ekin maydoni, ga | o‘rtacha hosildorlik ts/ga |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Y | $X_1$ | $X_2$ | $X_3$ |
| 1 | 2024 | 8526,1 | 65,7 | 27050 | 250.7 |
| 2 | 2025 | 9962,4 | 77,2 | 28806 | 255.4 |
| 3 | 2026 | 11565,7 | 90,5 | 31019 | 262.0 |
| 4 | 2027 | 13336,1 | 105,6 | 33691 | 270.3 |
| 5 | 2028 | 15273,6 | 122,4 | 36819 | 280.6 |
| 6 | 2029 | 17378,2 | 141,0 | 40406 | 292.7 |
| 7 | 2030 | 19649,9 | 161,4 | 44450 | 306.6 |

Sabzavot mahsulotlari dinamikasini matematik modellashtirish asosida tahlil qilish, unga ta’sir qiluvchi barcha omillarni qamrab olish asosida bashoratlash va hosilning o‘sib borish dinamikasini haqqoniy baholash sabzavot yetishtirishning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, viloyatda sabzavot yetishtiriladigan yalpi mahsulot qiymati 2030-yilga borib 7462,7 mlrd so‘mdan 19649,9 mlrd so‘mga yetishi, hosildorlik va natijada yalpi hosilning salmoqli bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

Sabzavotchilik xo‘jaliklarida sabzavot ekinlarini yetishtirish bo‘yicha yalpi mahsulot qiymatining haqiqiy va model asosida hisoblangan qiymatlari prognoz grafigi quyidagi 2-rasmda o‘z aksini topgan (2-rasm).




2-rasm. Sabzavotchilik yalpi mahsulotining haqiqiy, (5) va xususiy modellari asosida hisoblangan qiymatlari prognozi[8]

8 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, oʻtkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy takliflarni ishlab chiqish va tavsiya etish imkonini beradi:

1. Bozor talabi, tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda Toshkent shahri atrofi hududida intensiv sabzavotchilikni jadal rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda sabzavot yetishtiruvchi tadbirkorlik subyektlariga va jamiyat miqyosida quyidagi qoʻshimcha ijtimoiy-iqtisodiy naflar gradatsiyasi taqdim qilinadi:

a) yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi koʻrsatkichlari asosida baholanadigan ijtimoiy-iqtisodiy naf. Bunda:

- intensiv sabzavotchilik hisobiga an’anaviy sabzavotchilikka nisbatan oʻrtacha hosildorlikning oʻzgarishi;
- bitta vegetatsiya davri davomida ekin maydoni hisobiga yetishtiriladigan yalpi hosil miqdori oʻzgarishi.

b) mehnat va moddiy-texnik resurslar sarfi kamayishi hisobiga mahsulot tannarxi kamayishi asosida koʻriladigan ijtimoiy-iqtisodiy naf. Bunda:

- intensiv sabzavotchilikda urugʻlik sarfi bir gektar maydon hisobiga an’anaviy sabzavotchilikka nisbatan qanchaga kamayishi;
- koʻp mehnat talab qiladigan agrotexnik tadbirlar soni kamayishi (ba’zilari talab etilmasligi) hisobiga mehnat sarfi tejalishi;
- innovatsion yechimlar hisobiga sohada koʻp talab qilinadigan va tanqis resurslar, jumladan suv tejalishi koʻrsatkichlari kiritiladi.

c) mahsulot sifati an’anaviy ishlab chiqarishga nisbatan yaxshilanishi hisobiga iqtisodiy samaradorlik ortishini nazarda tutuvchi ijtimoiy-iqtisodiy naf koʻrsatkichi.

- intensiv sabzavotchilikdagi ijtimoiy nafni baholashda “Intensiv sabzavotchilikni rivojlantirish hisobiga sabzavot yetishtiruvchilar va jamiyat doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy naf gradatsiyasi” taklif qilinadi.

2. Intensiv sabzavotchilikni rivojlantirishni davlat tomonidan ragʻbatlantirishni yanada takomillashtirish. Bu borada:

- sabzavot mahsulotlari eksportini kengaytirishni ragʻbatlantirish boʻyicha tadbirlar, jumladan sabzavot yetishtiruvchilar kooperativlari, uyushmalarini rivojlantirish, sabzavotlar eksportidagi belgilangan imtiyozlar;
- intensiv sabzavotchilik tarmogʻi uchun texnologik uskunalar va texnologiya importini qoʻllab-quvvatlash, xususan uskuna va texnologiyalar importi jarayonida bojxona imtiyozlarini (kamida 5 yil) joriy qilish;
- sabzavotni qayta ishlash tarmogʻiga texnika va texnologiya importini qoʻllab-quvvatlash, yangi zamonaviy raqamli texnologiyalarni olib kirishda bojxona imtiyozlarini (kamida 5 yil) joriy qilish. Bu esa tadbirkorlik subyektlarini yuqori sifatli, raqobatbardosh sabzavot mahsulotlari yetishtirishga boʻlgan qiziqishini orttiradi, eksport hajmini va koʻriladigan iqtisodiy samarani koʻpaytiradi.

3. Sabzavotchilik tarmogʻini istiqbolda rivojlantirishdagi risklar va ularni kamaytirish uchun:

- sabzavotchilik tarmogʻiga tejamkor, yuqori unumli texnika va uskunalarni, ayniqsa dehqon va tomorqa xoʻjaliklari uchun kichik texnika vositalarini joriy qilish, zamonaviy raqamli texnik vositalardan foydalanish;
- mahsulotlarni tayyorlash, saqlash, tashish va qayta ishlash sohalarini rivojlantirish asosida qoʻshilgan qiymat yaratish tizimini shakllantirish, sabzavotlarni ichki va tashqi bozorlarga chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish;
- atrof-muhit muhofazasi va suv tejamkor ekologik sabzavotchilik tarmogʻi shakllanishini bozor segmentlari doirasida, hududlarning oʻziga xos shart-sharoitidan kelib chiqib tabaqali rivojlantirish, sabzavot mahsulotlari tarkibini jahon bozori talabi asosida yangi sabzavot turlari bilan diversifikatsiyalash masalalariga e’tibor qaratilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, oʻtkazilgan ilmiy tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan amaliy takliflarning sabzavotchilik tarmogʻiga, xususan sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarga tatbiq etilishi Oʻzbekiston Respublikasida sabzavotchilik tarmogʻini yanada rivojlantirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda uni raqamlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Natijada respublika qishloq xoʻjaligi tarmogʻi yanada rivojlanib, uning eksport salohiyati ortadi. Respublikaga kirib keladigan xorijiy valyuta va investitsiyalar koʻpayib, yangi ish oʻrinlari yaratiladi, aholini ish bilan ta’minlash darajasi koʻtariladi va kambagʻallik darajasi pasayadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasining 26.08.2004 yildagi “Fermer xoʻjaligi toʻgʻrisida”gi 662-II-son Qonuni // https://lex.uz/docs/-275195
2. Oʻzbekiston Respublikasining 01.04.2021 yildagi “Dehqon xoʻjaligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-680-son Qonuni // https://lex.uz/docs/-5351631
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 09.10.2017 yildagi “Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xoʻjaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5199-sonli Farmoni // https://lex.uz/docs/-3371644

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5841063
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 18.05.2020 yildagi “Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik koʻrsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5995-son Farmoni // https://lex.uz/docs/-4815923
6. Mirziyoyev Sh.M. Qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – eng dolzarb masala. 10-aprel 2020-y. www.prezident.uz/uz/lists/view/3493
7. “Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga qanday qilib eksport qilish kerak (Meva-sabzavot mahsulotlari misolida)”, Botirova D., Kaxxarova G., Akbarov D. - Toshkent, 2015.
8. N.Xushmatov. Intensiv sabzavotchilikni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi. «Globallashuv va iqlim oʻzgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash: muammo va yechimlar» Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024 yil 15 – may. 24-30 bet
9. S.S. Xasanov. Sabzavotchilik tarmogʻini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari. Diss.-Toshkent.: 2024.-137 b.
10. OʻR Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
11. Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi ma’lumotlari.
12. Djumanova R.F. “Ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash”. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. T.: 2012y., 15-bet.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 3**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz